



## DIDAKTIK O'YINLAR – BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

*Berdiyeva G.Sh.*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti*

*Ostonova M.I.*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti*

**Tayanch so'zlar:** pedagogik texnologiya, innovatsiya, o'yin, didaktik o'yin, intellekt, mustaqil fikrlash.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, инновация, игра, дидактическая игра, интеллект, самостоятельное мышление.

**Key words:** pedagogical technology, innovation, game, didactic game, intelligence, independent thinking.

### **РЕЗЮМЕ:**

Мазкур мақолада didaktik o'yinlar – boshlang'ich sinif o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishning asosiy omili эканлиги ўрганилган.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье исследовано, что дидактические игры являются основным фактором обучения младших школьников самостоятельному мышлению.

### **SUMMARY:**

This article explores that didactic games are the main factor in teaching primary school students independent thinking.

Jahonda yaqin yillar mobaynida ta'lim sohasiga e'tibor jadal suratda o'sib bormoqda. Buning asosiy sabablardan biri rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimiga davlatni rivojlantirishning yagona yo'li sifatida qaralayotganligidir. Jumladan, jahonning rivojlangan davlatlari hisoblangan Yaponiya, Amerika, Angliya, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koriya kabi mamlakatlarning bu boradagi tajribasi fikrimizga yaqqol dalil bo'la oladi.

Dunyoda fan va texnikaning shiddatli rivoji yuqori aqliy salohiyatga ega, mustaqil fikrlaydigan va yangiliklarga tez moslashadigan yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqardi. Biz ushbu jarayonni o'rganar



ekanmiz, turli jabhalarga ijodkorona yondasha oladigan kadrlarni tayyorlashda boshlang'ich ta'limning yuqori ahamiyatga ega ekanligini guvohi bo'ldik.

Respublikamizda ham umumiy o'rta ta'lim tizimi, ta'limda pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar sohalarida katta islohotlar amalga oshirilmog'idi. Mazkur jarayon kichik maktab yoshidagi o'quvchilar adaptatsiyasi va bilimi darajasini oshirish, o'yin shaklida ta'lim va hayotni o'zarouyg'unlashtirishga doir tadqiqot olib borish zarurati mavjudligini ko'rsatdi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda: "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa o'yin texnologiyalarining pedagogik-psixologik imkoniyatlari holatini tahlil etish, xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'yinlarni ta'limga integratsiyasi orqali pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish texnologiyasini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Endigina maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchidan nima istashini so'rasangiz, u o'qishdan boshqa hamma narsani istashini aytishi tabiiy. Maktabgacha ta'lim, bolalikning quvnoq, cheklovlarsiz hayot tarziga o'rganib qolgan 1-sinf o'quvchisi hattoki nima uchun dars davomida o'rnidan turib yurish, gaplashish, o'ynash mumkin emasligini yetarlicha anglamasligi mumkin. Albatta, u uchun qolipga solingan, chegaralangan erkinliklar, majburiyatlar stressni, muvaffaqiyatga erisha olmagan hollarda esa depressiyani keltirib chiqaradi. Natijada bolada o'qishga nisbatan qiziqishning so'nishi kelajakda uning yaxshi kadr, yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga jiddiy to'siq paydo bo'ladi.

Yoki bola psixologiyasiga ziddiyat vujudga keladi: bola o'rganishga tayyor, ammo boshqacha shaklda. Bolaning o'qish shaklini o'zgartirish istagi juda oddiy. Shu soddagina xulosa bugungi kunda zamonaviy ta'limning tendensiyasini belgilashi mumkin. Yangi avlodda shu sababli kompyuter, telefon, ijtimoiy tarmoqlar, video o'yinlarga qaramlik va o'zaro kommunikatsiya muammosi paydo bo'ldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bola o'ynashni xohlaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Ta'limning vazifasi esa unga ushbu imkoniyatni berishdir.

Bolalar sevib o'ynaydigan jismoniy o'yinlar ularda chaqqonlik, epcillik, chidamlilik, qat'iylikni tarbiyalasa, didaktik o'yinlar intellektual rivojlantirishga, fikrlashga, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi va ular voqelik nima ekanligini o'yin orqali anglaydi. Chunonchi bu borada N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.M. Sayfurov A.B. To'rayevlar o'ziga xos tadqiqotchilik ishlarini olib borganlar.



Bolalarning mustaqil faoliyati bo'lgan o'yinda ularning ruhiyati namoyon bo'ladi. Odam organizmi ma'lum yosh bosqichigacha o'sib, rivojlanishda davom etadi. Bunda harakat eng muhim omillardan biri sanaladi. Harakatli va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondiradi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilari hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, didaktika va o'yin so'zlarini ma'no jihatidan kelib chiqib, bolaning yosh xususiyatini hisobga olgan holda unga, asosiy maqsadi o'yin orqali ta'lim berishga qaratilgan o'yin turi hisoblanadi.

Bundan tashqari u boshqa o'yinlardan o'ziga xos qoidalari mavjudligi bilan ham farq qiladi. Ushbu o'yinda uning maqsadi, o'yinda bajariladigan xatti-harakatlar va o'yin qoidalari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. O'yin maqsadi unda bajariladigan harakatlarning qanday darajada amalga oshirilishini belgilab beradi. O'yin qoidasi esa undagi harakat jarayonlarining amalga oshishiga asos bo'lib xizmat qiladi. O'yin qoidasiga mas'uliyat bilan yondashish, uning mazmunini kengaytiradi.

Ma'lum bir aqliy yoki jismoniy faoliyatning bajarish uchun kishi faoliyatning shakl, yo'nalishiga qarab narsa-predmetlardan ehtiyojga mos ravishda foydalanadi. Didaktik o'yinlarda ham tabiiy narsa, buyumlardan va o'yin tashkil etish uchun joy, vaqt ham foydalaniladi. Didaktik o'yinlarda qoida muhim nuqtaligini inobatga olgan holda u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'yin qoidasini bajarish;
- o'yin mobaynida boshqalarga xalaqit bermaslik;
- navbatma-navbat ta'sir etish;
- o'rtoqlari fikrini eshita olish;
- o'z xatosini tan olish;
- so'ralganda javob berish.

Didaktik o'yinlarni tashkil etishdan oldin o'qituvchi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib o'yin tanlashni aslo unutmastligi lozim.

Ta'lim jarayonidagi didaktik o'yinlar ta'limning turli sohalarida qo'yilish jarayoni bo'lib, o'yinni ham o'qitish va tarbiyalash usuli sifatida, ham ta'lim shakli sifatida, ham yaxlit ta'lim jarayonini tashkil etish vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida geymifikatsiyaning afzalliklari quyidagicha:

- o'quvchini darsga chinakam qiziqishini;
- uning jarayonga, shu jumladan eng «zerikarli» darslarda ham ishtirok etishini;



- o‘yin faoliyati ishtirokchilarining diqqat, tushunish, qiziqish, idrok, fikrlash kabi aqliy jarayonlari faollashtirish .

Zamonaviy o‘yinlar prinsiplaridan foydalangan holda, u o‘quvchilarga o‘z saviyasini oshirish, jamoada ishlash va real dunyo bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Dars odatdagidek bo‘lib o‘tadi, o‘yin esa o‘quvchilar to‘plagan ballarini hisoblash va qobiliyatlarning taqsimlanishini boshqaradi. Xavf-xatar va manfaat real dunyoda ham mavjud bo‘lgani uchun ham, ushbu o‘yin o‘quvchilar uchun tushunarli, shuningdek, masimal darajada reallikka yaqin bo‘lgani uchun ham katta ta‘limiy ta‘sirga ega. Agar bola yaxshi baholarga o‘qib, hatto sinfdoshlariga tez-tez yordam bersa, unga mukofot sifatida tajriba ballari beriladi. Keyingi bosqichga o‘tish uchun esa, u yangi qobiliyat yoki bilim darajasini ochishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o‘yinlar nafaqat bolalarda ta‘limga motivatsiyani balki uning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishi, mustaqil fikrlashida ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, didaktik o‘yinlar qaysi sohaga doir bilimni berish va bolaga qay darajada ta‘sir etishiga qarab turlicha talqinda bo‘ladi. Lekin umumiy ma‘noda yuqori o‘rinlarda ta‘kidlab o‘tilganidek qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida” Qonuni. – Toshkent, 2020 yil 23 sentabr // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.
3. Qosimov F.M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar ustida ishlash Ped. fanl. nomz. ... diss. -T., 2007. -20 b.
4. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.fan dok. ... dis. – T., 2005